

2021
2(2)



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-2561

IQTISODIYOT VA TURIZM
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ
международный научно-
инновационный журнал

ECONOMICS AND TOURISM
international scientific and
innovative journal

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-256X

"IQTISODIYOT VA TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»
международный научно- инновационной журнал

"ECONOMICS AND TOURISM"
international scientific and innovative journal

№2(2) 2021



Jurnal haqida

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

"Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy-innovatsion jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Экономика и туризм» международный научно- инновационной журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-инновационном журнале «Экономика и туризм» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Economics and Tourism" international scientific and innovative journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific and innovative journal "Economics and Tourism" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

EDITORIAL BOARD



Chairman of the Editorial Board

Navruz-Zoda Bakhtiyor Negmatovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Vise-Chairman of the Editorial Board

Khamraev Khalim Razikovich

Bukhara State University Docent Doctor of economical sciences

Main editor

Khidirova Gavkhar Rustamovna

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Members of editorial board

Khamidov Obidjon Khafizovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Akhmedov Tursun Mukhitovich

Institute of forecasting and macroeconomic researcher (IFMR) Deputy director professor,
Doctor of Economic Sciences (DSc)

Yuldashev Shuxrat Ganievich

National university of Uzbekistan professor Doctor of economic science

Pardaev Mamayunus Karshibaevich

Samarkand Institute of Economics and Service Professor Doctor of economics

Djavlonbek Kadirov

Place of work: Victoria University of Wellington PhD in Marketing

Khazhimov Pazliddin Zukurovich

National university of Uzbekistan Docent Doctor of philosophy (PhD) of Economic sciences

Abdullaev Ilyos Sultanovich

Urgench State University professor Doctor of economic sciences

Alimova Mashhura Toirxonovna

Samarkand Institute of Economics and Service Professor of the Department of Management
DSc in Economics

Kakhkhorov Otabek Siddikovich

Bukhara State University Vice-rector on scientific researches and innovation Doctor of
Economical sciences (DSc)

Juraev Abror Turobovich

Bukhara State University Vice-rector for International Cooperation Candidate of economic
sciences

Ibragimov Nutfillo Salimovich

Bukhara State University Professor Doctor of Economical sciences (DSc)

Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich

Bukhara State University Docent Doctor of philosophy (PhD) Economical sciences

Tadjieva Sayyorakhon Uralovna

Bukhara State University Head of the Department Candidate of economic sciences

Responsible editor: Gavhar Xidirova

Web-administrator: Erkin Farmonov



MUNDARIJA

Ивлиева О.В. Информационная обеспеченность разделов «туризм» на туристских сайтах субъектов Северного Кавказа	5
Муталиева Л.М., Рахманов С.У. Стратегические и тактические проблемы развития кадровой политики в отельном бизнесе Казахстана	13
Хашимов П.З., Фахриддинова З.Ф. Рақамли иқтисодий ва ривожлантириш омиллари .	19
Hamroev H.R. “Islom ilmi va madaniyati markazi” ziyorat brendi Buxoro turistik destinatsiyasini shakllantirish vositasi.....	28
Д.Ш.Явмутов. Проблемы эффективного использования орошаемых земель Бухарского вилоята и пути их улучшения.....	36
Ибрагимов Н.С. 7М кўламда рақобатбардош экскурсия хизматларининг илмий асослари	42
Хидирова Г.Р. Минтақада ички туризмни ривожлантиришнинг концептуал асослари...	51
Xalimova N. J. Ijtimoiy mediani shakllantiruvchi funksional bloklar va ularning virtual dunyoda qo'llanilishi	67
Djuraeva Z.T., Rajabova M.A. Convenience and advantages of outsourcing in the regional market of tourist services.....	73
Рахимова С.М. Пандемия шароитида Ўзбекистонда тиббий хизматлар бозорини такомиллаштиришнинг айрим масалалари таҳлили	81
Axmatova M.E. Turizm va transport xizmatlarining bir-biri bilan uzviy bog'liqligi	86
“Iqtisodiyot va turizm” jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari.....	92

UDK: 339.9

Hamroev Halim Roziqovich

Bux.DU, kafedra prof., i.f.n.

hamraevhalim@mail

“ISLOM ILMI VA MADANIYATI MARKAZI” ZIYORAT BRENDI BUXORO TURISTIK DESTINATSIYASINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI

Annotatsiya:

Kirish. Maqolada qadimiy, nafaqat moddiy, balki nomoddiy boyliklarga boy Buxoro uchun o'ziga xos **ziyorat** turistik brend yaratish zarurati to'g'risida hamda bu brend qanday bo'lgani maqsadga muvofiqligi to'g'risida so'z yuritiladi. Muallif bu brendni yaratish uchun hukumat va jamiyat oldida turgan vazifalar, ularni bajarish zarurati haqida so'z yuritiladi hamda brendan unumli foydalanish borasida ayrim g'oyalar taklif etiladi.

Tadqiqot metodlari. Maqolada monografik usulda va ilmiy abstraktsiya metodlardan foydalanib “brend” atamasini tahlil qilgan, tizimli tahlil usulini qo'llash natijasida Buxoro brendini tarkibiy qismlari nimalardan iborat bo'lishi kerakligi aniqlangan, tarixiylik metodidan foydalanib Buxoro tarixiga murojaat qilingan hamda tiklanishi zarur bo'lgan va brend uchun o'ta muhim bo'lgan komponentlar aniqlangan, analiz va sintez metodidan foydalanib Buxoro uchun brend yaratish vazifalari belgilangan. Tadqiqotda bundan tashqari kuzatish, solishtirish, iqtisodiy-matematik tahlil, statistik guruhlash kabi metodlardan ham foydalanilgan.

Natijalar va munozara. Mashhur turistik brend yaratish orqali asrlar davomida islom madaniyati, ilmining muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan Buxoro shahrining ziyorat turizmi, ilm-madaniyatdagi maqomini tiklash yo'llaridan birini ishlab chiqilgan va uni hayotga kiritish yo'llari taklif qilingan.

Xulosa. Buxoro kabi muqaddas shaharni jahon ahamiyatiga ega bo'lgan ziyoratgoh maskanga aylantirishni xohlasak, uni islom madaniyati va ilmining muhim o'chog'i sifatida qarashimiz, o'rganishimiz, yuqotilgan ayrim unsurlarini tiklashimiz va targ'ib qilishimiz kerak.

Kalitli so'zlar: Islom ilmi, islom madaniyati, ziyorat brendi, islom renessansi, Buxoro madaniyati.

Kirish

“Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak.”, degan edi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. [18.]. Bu bizlarga nafaqat uchinchi, balki oldingi ikki renessansni ham chuqur o'rganish vazifasini qo'yadi. Buxoro shahri esa oldingi ikki renessansning xuddi shunday yirik o'choqlaridan biri bo'lgan. U uchinchi renessansga xizmat qilishi uchun ham oldingilarini tajribalardan saboq olish chuqur o'rganishimiz zarur, deb o'ylaymiz.

Buxoro – jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri sanalishini hamda 1997 yilda shahar 2500 yillik yubileyini nishonlaganligini yaxshi bilamiz. 1993 yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (YUNESKOning 1-sessiyasida, Kolumbiya) “Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati”ga kiritilganligi ham barchga ma'lum. Buxoro tarixiga nazar solar ekanmiz, u juda ko'p davrlar davomida o'z hududida

ilm va madaniyat mash'ali sifatida turkiy, forsiy va boshqa xalqlarning madaniyati shakllanishiga o'z hissasini qo'shib kelgan, asrlar davomida juda katta ma'naviy boylik yaratgan. Bu boylikni esa saqlashimiz, ayrim qismlarini tiklashimiz hamda insoniyatga ko'rsatishimiz zarur. Buning uchun esa Buxoroni hududimizning eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan ziyorat, avvalom-bor din va madaniyat o'chiog'i sifatida tiklashimiz va rivojlantirishimiz kerak.

Materiallar. Yozma manbalarda Buxoro nomi dastlab IX asrda tarixchi Narshaxiy tomonidan zikr etilgan [5]. Buxoroni ilm va madaniyat maskani sifatida o'rganishda yevriopalik olimlar - Masson V. M. , Mets A, Richard Fray va b. [6,7.], rossiyalik olimlar (Bartold V. V, Petrushevskiy I. P, Rempel L.I, Suxareva O. A. va b) [3,8,9.12.], o'zbekistonlik olimlardan Salimov D.V. Abduxalikov F., Z.B.Navro'z-zoda kabi qator olimlar [1,2,11,14] ilmiy izlanish olib borishgan. Ma'lum bir turistik regionning brendi masalasida N.S. Ibragimov o'zining ilmiy ishlarida chuqur tadqiq etgan [13]. Arxeologik qazishmalar natijasida ko'plab narsalar topilgan. Arxeologik qazishmalar natijasiga asosan olimlar ushbu shahar eramizgacha bo'lgan davrda hududning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan, degan xulosaga kelganlar. Buxoro Xitoydan Rimgacha olib boruvchi Buyuk Ipak yo'lining eng muhim chorrahalaridan birida joylashgan va asrlar davomida muhim rol o'ynab kelganligi isbot qilingan.

Metodlar

Maqolada monografik usulda "brend" atamasini tahlil qilgan, tizimli tahlil usulini qo'llash natijasida Buxoro brendini tarkibiy qismlari nimalardan iborat bo'lishi kerakligi aniqlangan, tarixiylik metodidan foydalanib Buxoro tarixiga murojaat qilingan hamda tiklanishi zarur bo'lgan va brend uchun o'ta muhim bo'lgan komponentlar aniqlangan, analiz va sintez metodidan foydalanib Buxoro uchun brend yaratish vazifalari belgilangan. Tadqiqotda bundan tashqari kuzatish, solishtirish, iqtisodiy-matematik tahlil, statistik guruhlash kabi metodlardan ham foydalanilgan.

Natijalar

Ma'lum bir regionning brendi masalasini, uning zarurligi, ichki komponentlarini N.S.Ibragimov o'zining monografiyasida chuqur va har tomonlama o'rganib chiqqan va ta'rif bergan. "Xuddi mahsulot va xizmatlar kabi turistik hududlar ham o'z tijorat belgisi, ya'ni brendiga ega bo'lishi tobora glaballashib borayotgan, bir-biriga o'xshash sayohat turlarini taklif qiladigan turistik joylarning ko'payib borayotgan ayni tarixiy davrda jahon turizm bozoridan o'z o'rnimizni topishimiz, bizni boshqalardan farqlash imkoniyatini beradigan o'z turistik ramzimizni yaratib uni bozorda qanchalik samarali targ'ib qila olishimiz, turizm sohasi barqaror raqobatbardoshligiga erishishimizda belgilovchi bo'lib hisoblanadi [13.152].

Uning fikriga qo'shilib shuni aytish mumkinki, Buxoro turistik hududiga oqib keladigan turistlar sonini oshirish uchun, yani kelishni xohlovchilar tasavvurida Buxoroni shakllantirishimiz uchun, boshqacha aytganda Buxoro turistik desdinatsiyasining imijini shakllantirish uchun Buxoro brendini taklif etishimiz va uni takomillashtirish ustida ishlashimiz zarur [13.159.].

Shahrimizga keladigan mehmonlar tasavvuridagi Buxoro imijining o'zagini "Buxoro islom ilmi va madaniyati markazi" tashkil etishi kerak, deb hisoblaymiz.

Hozirgi paytda mehmonlar Buxoro shahriga birinchi navbatda uning tarixiy obidalarini tomosha qilish uchun kelishadi. Hozirgi kunda Buxoroda tarixiy obidalar va qadimiy yodgorliklari soni 250 dan ko'p. Ammo, ushbu tarixiy obidalarning asosiy qismida haligacha turistik infratuzilma yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Ularning ichida eng muhimlaridan biri kommunistlar tomonidan 80 foizi vayron qilingan Ark qal'asi

hisoblanadi. Ark juda katta turistik potensialga ega, ammo uning juda ham kichik bir qismigina ishlatiladi. Qanchadan-qancha ob'yektlar esa turistik resurs sifatida ishlatilmayapti.

Buxoro madaniyati eng yuksalgan o'rta asrlarda shaharda Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali Ibn Sino, Forobiy, Umar Xayyom kabi buyuk zotlar yashagan. Abu Ali ibn Sino bunday yozadi: "Bu yer kutubxonasidan shunday kitoblarni topdim, ularni oldin ham, keyin ham hech qacda ko'rmadim. Ularni o'qib chiqdim va menga olam sirlari ayon bo'ldi"[2.39.]. U yashagan davrda Buxoro kutubxonasi jahon ahamiyatiga ega bo'lgan yirik kutubxona bo'lgan.

Hozirgi paytda shaharning tarixiy obidalarini yurtdoshlarimiz hamda chet ellik mehmonlarni ohanrabodek o'ziga tortib kelmoqda. Shu bilan birga, keyingi yillarga unga islom madaniyati, sharq madaniyati o'chog'i sifatida keluvchilar ham oshib bormoqda, jumladan, "Etti pir" ziyoratgohlariga ziyoratchilarning oqimi oshib bormoqda. Buxoroni reklama qilishda ham asosan shu jihatga urg'u berishadi. Ammo, Buxoro undan kattaroq, rang-barangroq brendga ega bo'lishga haqlidir. Chunki u asrlar mobaynida insoniyat sivilizatsiyasida katta o'ringa ega bo'lib, islom ilmi va madaniyatining muhim o'choqlaridan biri bo'lgan. Islom tarixda bu kabi shaharlar barmoq bilan sanarli darajada kam bo'lishgan.

"Islom renessansi" deb nom olgan davrda, ya'ni sakkizinchi asrning o'rtasidan to XIII asrning o'rtasigacha bo'lgan davrda islom madaniyati shakllangan. Bu davrda jahon madaniyati va fanini rivojlanishiga katta hissa qo'shilgan. "Yevropa xalqlari o'z vaqtini o'zaro urushlarda sarf qilib yurganda (VII - XIV asrlarni ko'zda tutib aytgan) islom tsivilizatsiyasi, san'atni va fanni rivojlantirgan"[11.112.]. U davr olimlari qadimgi Rim va grek olimlarining asarlarini yangi zamonga yetib kelishi ustida ishlashgan. Shu o'rinda g'arb olimi Sharl Mismarning fikri o'sha davr islomini to'g'ri ta'riflab bergan: "Agar boshqa din vakillari ma'lum bir ilmga ega bo'lishsa ular dinga bo'lgan e'tiqodidan ajralsa, musulmonlarda aksincha bilimi oshib borishi bilan dinga bo'lgan ishonchi ham oshib boradi" [19.]. Islom madaniyatining quyidagi kabi aqidalari ham islomning dastlabki bosqichida ilm qilishga katta yo'l ochib bergan: "Har qanday narsaning o'z yo'li bor, bilimlarni egallash – jannatga qarab yo'ldir" yoki "Oxiri zamonda olimning siyohi e'tiqod uchun shahid bo'lganning qoniga barobardir" yoxud "Eng yuqori mansab – bu olim odamning mansabidir" [19.].

Bu davrda islom tsivilizatsiyasi shakllanishida Bag'dod xalifaligi juda katta hissa qo'shgan. Arab xalifati mug'ullar tomonidan tor-mor qilingach, bu an'analarni Buxoro qisman davom ettira oldi.

Islom Hamkorlik Tashkilotini a'zolari – davlatlarning madaniyat vazirlarining 9 konferensiyasi qarori bilan Qohira (Misr) va Bamako (Mali) shaharlari bilan bir qatorda Buxoro shahri 2020 yilda islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilindi. Bu bejiz emas, chunki Buxoro asrlar davomida islomning markazi, "qubbat islom" bo'lib kelgan.

Somoniylar davlatidan keyin, qisman G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Temuriylar, Suljuqiylar, Xulaguidlar uni davom ettirishdi [7.]. "Islom din sifatida va islom dunyosi tsivilizatsiyasi sifatida antik dunyoning buyuk olimlarining bilimlarini asrab qolib bilganlar va g'arb mamlakatlarida fanning rivojlanishiga katta turtki bo'la olgan." [11.113.].

Buxoro dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan arxitektura durdonalari bilan mashhurligi barchaga ayon. Ammo, o'tmishda Buxoro birinchi navbatda, islom ilmining poytaxtlaridan biri sifatida dovrug' qozonganligini uncha ham yaxshi bilmaymiz. Islom dini Saudiya Arabistonida tug'ilganligini yaxshi bilamiz. Uning orqasidan islom ilmi ham shu yurtda

paydo bo'lgan. Dastlab Madina shahri ma'lum vaqtda islom ilmi paytaxti sifatida shakllangan. Birinchi navbatda, hazrati Usmon va hazrati Ali rahnomoligida bu markaz shakllanib borgan. Keyin esa poytaxt Damashqqa ko'chganligi tufayli qisman bu shahar shunday markaz bo'lgan. Ammo, Abbosiylar davrida islom ilmining haqiqiy poytaxti sifatida ular qurgan va poytaxt qilib olgan Bag'dod shahri juda mashhur bo'ldi va katta muvofaqqiyatlarga erisha oldi.

O'n uchinchi asrda islom olamida din jihatdan ularga begona bo'lgan mug'ullar tomonidan bu olamning deyarli barcha davlatlarini bosib olinishi va hukmronligini o'rnatish davrida Bag'dod ko'p jihatdan, shu jumladan, islom dinining ilmiy markazlik maqomidan ajralib, inqirozga uchradi.

Tarixdan ma'lumki, Misr armiyasining asosiy yadrosini tashkil qilgan, kelib chiqishi jihatidan Markaziy Osiyodan bo'lgan mamluklarga mug'ullarga qarshi turib bilishgan. Islom olamining g'arbida, Misrning poytaxti Qohira shahrida islom madaniyatining o'ziga xos markazi shakllana boshlagan.

Sharqida esa Bag'dod bilan bir qatorda Samoniylar poytaxi Buxoroda islomning kuchli bir markazi shakllana boshlagan. Buxoro shahri islom renessansida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. "Buxoro - asrlar mobaynida Sharqning ma'rifat va diniy markazi sifatida mashhur bo'lgan qadimiy shahardir"[2.18.]. Musulmon sharqi fan, ma'rifat va ilohiyotni rivojlanishiga qo'shgan salmoqli hissasi tufayli u mumtoz o'rta asr musulmon olamida "Qubbat ul-islom" va "Buxoroi sharif" sifatida mashhur bo'lgan." [2.19.].

Arablar Buxoroga nafaqat savdogarlar shahri (Madinat at-tujjor), mis shahri (Madinat as – sufriya) deb nom berishgan, balki "Faxrli shahar" (Foxira) nomini ham berishgan. Faxira nomi Muhammad Narshaxiyning ta'kidlashicha, islom uchun jonini fido qilgan shahidlar sharafiga berilgan [5, 2.29.]. Buxoroni yana bejiz ochiq qur'on shahri ham deyishmagan.

Buxoro toponimi sug'd tilidagi "Buxarak" - baxtli joy, "Buxor" so'zi esa "bilim yig'ilgan joy" ma'nosini anglatadi[10.]. Bu kabi maqomlar Buxoro Sug'diylar davrida, Ahmaniylar davrida, Makedonskiy davrida nafaqat region uchun ahamiyatli shahar bo'lib rivojlangan, balki ilm, ma'rifat, madaniyatning ahamiyatli o'chog'i bo'lgandan dalolat beradi. Bir hadisda aytilishida payg'ambarimiz bu shaharga nisbatan "Faxira" so'zini ishlatganlar. Zahridin Muhammad Bobur esa unga "Buxoro faraxbash shahar" deb baho bergan. "Buxoro e'tiqod qal'asi", "Fazilatli Buxoro" kabi nomlar ham Buxoroning din, ilm, madaniyat markazi ekanligini ta'kidlaydi.

"Buxoro 1273 yilda mug'ullar tomonidan (Hulokiyalar tomonidan) vayron qilingach, uning "Oltin asri" tugadi, yani jahon tsivilizatsiyasining markazi sifatidagi ahamiyatini yo'qotdi, ammo rus imperiyasi hukmronligigacha o'ziga xos mavqeini saqlab qola oldi" [10. 7.].

Buxoro bir paytlar jahon tsivilizatsiyasining muhim markazi bo'lganligini tushunish uchun u davrni bilish zarur. Somoniylar davrida o'sha davr islom olamining sharqida turk-tojiklar yurti bo'lgan Buxoroda muhim ilmiy markaz shakllana boshladi. X asr oxiriga kelib esa Buxoro nafaqat Movorahunahr, balki Xurosonning eng ko'p aholili shahriga aylangan [3.54.]. Birgina kutubxona shaharning qandayligini ko'rsatib bera oladi, Nuh ibn Mansur (976 – 997yy.) davridagi kutubxona o'sha davrdagi dunyodagi eng yirik kutubxonasi bo'lgan. Bu kutubxonadan Ibn Sino foydalangan va yuqorida ta'kidlaganimizdek, u bunday kitobga boy joyni hech qaerda ko'rmaganligini o'z avtobiografiyasida yozib qoldirgan. X asrda Buxoroga kelgan Muqaddasiy musulmon olamida shu yerda qurilgan (shaharning Registon maydonida) saroy kabi muhtashamroq saroyini hech qaerda ko'rmaganligini ta'kidlagan [2.39.].

Buxoro shahri Somoniylar davrida soliqdan ozod qilingan o'ziga xos shahar ham bo'lgan. Shahar aholisi shuning uchun juda ko'payib ketgan, Muqaddasiyning fikricha, "aholi shohning odilligidan huzur qilib, ishonch va faravonlikda kun kechirgan"[2.40.].

Buxoroda X asrda Somoniy amirlarining o'zlaridek fanga, san'atga homiylik qiluvchi to'ralarning ko'pligi fan va madaniyat ishtiyoqmandlarini shaharga (bu kishilar nafaqat mamlakat ichidan, balki chet mamlakatlardan ham oqib kelishgan) jalb etgan [2.40.]. Xullas, bu davrda Buxoro islom tayanchidek buyuk sharafga muyassar bo'lgan. Aynan shu davrda Buxoroda islom olamida birinchi Farjok madrasasi ham qurilgan [2.41.].

Hatto eng og'ir mug'ullar istilosi davrida ham Buxoro o'zining ma'naviy - diniy markaz va musulmon olamining Sharqiy Makkasi maqomlarini saqlab qola bilgan. Temuriylar davrida Buxoro ayrim tarixchilarning fikri bo'yicha oldingi (qoraxoniylar emas, balki samoniylar davridagi) ulug'vorlik va ahamiyatning o'ndan biri qolmagan bo'lsa ham, u Markaziy Osiyoning nafaqat yirik savdo va hunarmandchilik markazi bo'lgan, balki "Qubbat ul-islom" sifatida mashhur ziyoratgoh va sufizm vakillarining vatani ham bo'lgan. SHu davrda u o'zining "Buxoroi sharif" nomini ham olgan. Amir Temur Buxoroni onasining vatani sifatida qaragan va uni e'zozlagan [2.49.].

Eng so'nggi amir hukmronligi boshlangan yil - 1910 yilda Buxoro shahrida 150 ming aholi bo'lgan, shaharda 600 masjid bo'lgan (amir Ahadxon o'lgan paytda hammasida janoza o'qilganligini tarix guvohlik beradi), 170 dan ortiq madrasalar bo'lgan [9.49.].

Buxoro madaniyatining muhim bir qirralaridan biri shundan iboratki, asl buxorolik non uvoqiga qanday hurmat ko'rsatgan bo'lsa, u qog'ozga yozilgan narsaga ham xuddi shunday munosabatda bo'lgan [9.68-69.]. Nonni e'zozlash dehqon va boshqa moddiy sohadagi kasb egalari hurmatning ko'rinishi bo'lsa, kitobni e'zozlash ma'naviy boylik yaratuvchilar mehnatini e'zozlash ramzi bo'lib kelgan.

XX asr boshida Buxoro 30 ta minoradan iborat qadimiy qal'a devori bilan o'ralgan edi. Ana shu minoralar va devor qariyb butunlay yakson qilindi. Artilleriya va aviatsiya to'g'ri nishonga olish yo'li bilan bu qal'ani buzib tashladi. Devorda o'n bitta qadimiy darvoza bo'lib, ularning ba'zilar temirdan yasalgan edi.

Hozirgi avlodning eng buyuk vazifasi ushbu XX asr boshidagi genotsid oqibatlarini bartaraf etib, tarixiy yodgorliklarni, Buxoroning ming yillik ziyorat turizmi markazi imijini iloji boricha to'liq tiklashdan iborat. Bu masalada nemislardan o'rnak olsak bo'lar edi. Ikkinchi jahon urushida yutqizgan Germaniya deyarli to'liq vayron qilingan edi, ammo nemislar 1968 yilga kelib, ya'ni 23 yildan keyin barcha ob'ektlarni (sanoat, transport, infrastruktura, tarixiy obidalar va hokazo) to'liq tiklab bo'lishdi. Urushdan chiqqan yarim och nemis xalqi kuni bilan nafaqat korxonalarda ishlashdi, balki ishdan keyin o'z mahallasidagi biror bir tarixiy arxitektura yodgorligida ishlashgan (asosan bepul ishlashgan). Bu voqealarga 2020 yil sentyabrda 100 yil bo'ldi, biz esa hali asosan kommunistlar buzgan vayronalarda yashab kelmoqdamiz.

Buxoroda buyuk shaxslar juda ko'p o'tgan. Biz ayrimlarini yuqorida sanab o'tgan edik, ulardan tashqari Buxoroni dunyoga taratgan zotlar: Abu Hafsi Kabir Buxoriy (767 – 832yy.), Imom al Buxoriy, Narshaxiy, Daqiqiy, Balamiy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Nosir Buxoriy, Shamsiddin Buxoriy, Ubaydulloh Buxoriy, Mushfiqiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Turdi Farog'iy, Ahmad Donish, Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzullo Xo'jaev, Ibrohim Mo'minov, Jalol Ikromiy shular jumlasidandir. Biz bilmaganlarimiz qancha? Afsuski, odatda biz ularni qadriga yaxshi yetmaymiz. Ayrim davlatlarda bir tarixiy shaxs siymosidan ham foydalanib turistlar oqimini oshirishga harakat qilishadi, Masalan, Turkiyaning Bodrum shahrida grek olimi, tarixni otasi degan

nomni olgan Gerodot tug'ilgan, turklar shundan foydalanib, o'z shaharlariga turistlar oqimini oshirish uchun ishlashadi. Yoki umri AQSHda o'tgan va o'sha yerda dunyoga mashhur bo'lgan, faqat Gonkong shaharida tug'ilganidan foydalanib gonkongliklar Gollivud aktyori Brui Li nomidan yaxshigina foydalanishadi, jumladan, shu shaxsga bag'ishlangan maxsus tematik park yaratganlar va bu parkni ziyorat qilishga millionlab kishilar butun dunyodan kelishadi.

Buxoroga turistlar oqimi nisbatan katta emas, ular asosan, "tarix nafasidan bahramand bo'lish" uchun Buxoroga kelishmoqda [2.173.]. Biz esa ularga asosan otabobolarimiz qurgan arxitektura yodgorliklarini ko'rsatish bilan chegaralanib qolmoqdamiz. Menimcha, Biz Buxoroni oldingi "qubbat - ul islom" maqomini tiklash ustida ish olib borishimiz va shu maqomni olishimiz kerak. Ana o'sha paytda turistlar oqimi ancha oshadi, birinchi navbatda ichki turizm va musulmon dunyosidan keladiganlar ko'payadi. Jumladan, olimlar va avliyolar shahri Buxoroni ziyorat turizmi markazlaridan biriga aylantirish ustida ishlashimiz kerak. Buxoro shahri avliyolar shahri deb bejiz aytilmaydi. Bu shaharga "Qubbat islom din hast" deb baho berilar ekan, Buxoroni islom tsivilizatsiyasida alohida o'rin egallaganligi ta'kidlanadi. Bunday nomga ega bo'lishda asos bo'ladigan narsalardan eng muhimi – bu tuproqda ko'plab avliyolarning xoki makon topgan. Ayrim ma'lumotlarda Buxoroda 300dan ortiq avliyo o'tgan deb ta'kidlanadi. Musulmon dunyosining ko'plab kishilari bu avliyolarning poyi-qadami tekkan joylarni ziyorat qilishni xohlashadi. Ammo, bu joylarni ziyorat turizmi talablari darajasida deb bo'lmaydi, ayrim avliyolar to'g'risida ma'lumotlar juda ham oz, bori ham uzuq-yuluq tarzda mavjud.

Munozara

Buxoro shahri Ozbekistonning muhim zamonaviy shahri sifatida zamonaviy binolar bilan, zamonaviy turmush tarsi unsurlari bilan boyib bormoqda, ammo asrlar davomida yi'g'ilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ko'z qorachig'imizday asrayapmizmi, uni asrashga arziydigan stimullarga egamizmi, qadriyatlarimizni asl mohiyatini tushunib yetyapmizmi, asrlar davomida ajdodlarimizga xizmat qilib kelgan ma'naviy boyligimizni to'liq holda keyingi avlodlarga qoldirish choralarni qilmoqdamizmi, menimcha bular to'g'risi'da bosh qotirish va uni hal qilish vaqti keldi.

Xulosa

Yuqorida bildirgan fikr-g'oyalar yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Buxoroda turistlar oqimini, jumladan ziyoratchilarni keskin oshirish uchun, biz birinchi navbatda, shaharni "islom madaniyati va ilmining muhim o'chog'i" sifatida brendini shakllantirishimiz kerak. Bu borada esa quyidagi ishlarni qilish zarur:

-Maxsus davlat qarorini qabul qilish maqsadga muvofiqdir, avvalom-bor shu problematikani chuqur o'rganilgan holda Davlat konsepsiyasini yaratish kerak, buning uchun esa bu borada ilmiy ishlarni kuchaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur, olimlar, avliyolar, pirlar to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish, ular to'g'risida ilmiy ishlar chop etish, hozircha biz bilmaydiganlari qidirib topish, ular to'g'risida ilmiy tadqiqotlar olib borish, shu jumladan, biz bilamiz deb o'ylaydigan buyuk zotlarimizning bizga noma'lum qirralarini topish borasida ilmiy tadqiqotlar ham olib borish uchun rag'batlar tizimini ishlab chiqish;

-Bu masalani to'la qonli hal qilish uchun uning moliyaviy asosini yaratish zarur, jumladan, davlat byudjetidan mablag' ajratish, xorijdan investorlar va boshqa sponsorlarni qidirib topish, millati va vatani uchun mablag'ini ayamaydigan milliy va xorijiy

ko'ngillilar, metsenantlarni pulini konsentratsiya qilish uchun maxsus jamg'armalarni tashkil etish;

-Buxoroning olimlari, avliyolari, pirlari bilan bog'liq joylarni zamonaviy ziyorat turizmi talablari darajasiga chiqarish maqsadida qilinadigan ishlarni amalga oshirish dasturini yaratish zarur. Buning uchun mahalliy aholi o'rtasida ularni tanishtirish ustida ishlash, bu ob'ektlarga boradigan yo'llarni tayorlab, ularga olib boradigan yo'llarga yo'l belgilarini qo'yib chiqish kerak;

-Qilinadigan ishlarning yana biri - Buxoroning olimlari, avliyolari, pirlarining mehnati tufayli insoniyat madaniyati va faniga qo'shilgan hissani ular tomonidan amalga oshirilganligini isbotlash ustida ish olib borish. Buning sababi shundan iboratki, otabobolarimiz tomonidan qilingan ko'pgina ilmiy ishlar va tadqiqotlar ma'lum sabablar tufayli boshqa xalqlarning mehnat ma'suli bo'lib tarixga qolib ketgan. Bunga muhim sabablardan biri – ular o'z izlanishlarini ko'pincha o'sha davr ilmiy tillarida, jumladan, fors, arab va boshqa tillarda yozib qoldirishgan.

-Eng muhim ishlardan yana biri bu borada jahon tajribasini, jumladan, nemislar tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda o'zimizning mutaxassislarni xorij tajribasini o'rganish uchun chetga yuborish ustida ham ish olib borish kerak.

Xullas, Buxoro kabi muqaddas shaharni jahon ahamiyatiga ega bo'lgan ziyoratgoh shaharga aylantirishni xohlasak, uni islom madaniyati va ilmining muhim o'chog'i sifatida qarashimiz, o'rganishimiz va targ'ib qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бухара // Архитектурная эпиграфика Узбекистана / Абдухаликов Ф. - Т.: Uzbekistan today, 2016. 24с. –wikipediya.org. /wiki/Бухара.
2. Бухоро шарқ дурдонаси./А.Мухаммаджонов, Э.Ртвеладзе, Б. Кочнев ва б. Тошкент. “Шарқ”1997й. 232б.
3. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения: в IX т. / - Москва. Из-во восточной литературы, 1963- Т.1-761с.
4. История Бухары с древнейших времен до наших дней. / Б.В. Лунин, Я.Г.Гулямов, Г.А. Пугаченкова и д. Ташкент. 1976. -383с.
5. Наршахи. История Бухары. Ташкент. 1897. 128с.
6. Массон В. М. Бухара в истории Узбекистана. - Бухара, 1995 -52 с.
7. Мец А. Мусульманский Ренессанс. - М.: Наука, 1973. - 473 с.
8. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV вв. - Москва: Восточной литературы, 1963. 280с.
9. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства старой Бухары: Бухарские записи. - Т.: Изд. лит. и искусства. 1981.-302с.
10. Ричард Фрай. Бухара в Средние века. На стыке персидских традиций и исламской культуры. 2017.-389с.
11. Салимов Д.В. Влияние исламской науки на западной цивилизации. Международный научный журнал «Символ науки» № 5, 2016г. 1-5 стр. ISSN 2410-7000X.
12. Сухарева О. А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Монография, М., Наука. 1976.- 370с.
13. Ибрагимов, Н.С. Туристик худудни барқарор ривожлантиришининг устувор йўналишлари: Монография/Н.С.Ибрагимов. - “Дурдона” нашриёти Бухоро. 2020 йил. 204 бет.

14. Navruz-zoda Z. B. Three-level smart model of tourist destination Journal of menejment Value and etnics. July- sept.20 vol.10 N.03. 78-85.

15. Навруз-Зода Б.Н. “Кичик ҳаж” зиёрат масканини ташкил этиш йўллари. Марказий осиё фалсафий тафаккури тараққиётида тасаввуф таълимотининг ўрни ва аҳамияти. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. Бухоро. 2020.244-246 бб.

16. Навруз-Зода Б.Н.Бухоройи шарифни “кичик ҳаж” мақомига эга зиёрат маконига айлантириш йўллари. Ўзбекистонни топ 10 туристик худудлар қаторига киритиш истикболлари: барқарор ривожланиш имкониятлари [Матн] / Б.Н. Навруз-Зода, Н.С. Ибрагимов.Бухоро: ООО "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. -300 б.Б: 6-8 б.

17. Navruz-Zoda B.N.,Najmiddinov S.N.Buxoro hududining turistik salohiyatini ko'tarishda ziyorat turizmining ahamiyati va roli. Бухоро давлат университети Ахбороти журнали. 2019 йил 2-сон.231-235 бб.

18. Navruz-Zoda B.N. Buxoroni sayyohat chorrahasiga aylantirishning ustuvor yo`nalishlari. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2019, № 5. 9-11 бб.

19.Хамроев Ҳ. Р. Самонийлар даврида Бухоро ислом илми ва маданияти маркази сифатида.“Buxoroda islom madaniyatini modernizatsiyalash va turizmni barqaror rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.24 fevral, 2020 yil. Buxoro. 131-133 betlar.

20.Хамроев Ҳ. Р. Арабистони зиёрат туризмини ривожлантириш йўлида. “Buxoroda islom madaniyatini modernizatsiyalash va turizmni barqaror rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.24 fevral, 2020 yil. Buxoro. 333-336 betlar.

21.Хамроев Ҳ. Р.Бухоро ислом илми ва маданияти маркази сифатида. “Бухоронинг ислом цивилизациясидаги ўрни ва унга қўшган ҳиссаси” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман (видеоконференция) материаллари тўплами. 28-29 май 2020 йил. Бухоро. 208-213 бетлар.

1. <https://xs.uz/uz/post/uchinchi-renessans-millij-goya-sifatida>- Xalq So'zi.
2. <https://islam-today.ru/obsestvo/nauka-i-tehnologii/muslim-ucenie/>
3. <http://www.uzbektourism.uz>
4. <http://www.constanttour.ru/>
5. <http://www.goperu.ru/>
6. <http://www.tourism.com/>
7. <http://www.e-tarix.uz/vatan-tarixi/485-buxoro-bombordimon-qilinganda.pdf>.

“IQTISODIYOT VA TURIZM” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

1. Maqola boshlanishida Universal o‘nlik ko‘rsatkich (O‘UK) beriladi.
Quyidagilar alohida qatordan boshlab kiritiladi:
 - 1) maqola sarlavhasi (oddiy harflarda, masalan: Abdulla Qodiriyning tasvirlash mahorati);
 - 2) muallif(lar)ning familiyasi (to‘liq), ismi va otasi ismining bosh harflari;
 - 3) maqolaning annotasiyasi (probellar bilan birga 500 belgidan iborat), annotasiya kursiv bilan beriladi va bir qator tashlagan holda asosiy matndan ajratiladi;
 - 4) kalit so‘zlar (5–10 ta).

2. Maqola matni “Microsoft Word” dasturida tayyorlanib, “Times New Roman” 14 o‘lchamli shriftida, satrlar orasi bir interval, sahifa chetlari chapdan 3 sm, yuqoridan va pastdan 2 sm, o‘ngdan 1,5 sm, xatboshi 1,25 sm qoldirgan holda teriladi va elektron varianti bilan (fleshka yoki CDda) topshiriladi.

Maqola matnida boshqa shriftlardan foydalanilgan taqdirda bunday shriftlar muallif tomonidan elektron variantda taxririya taqdim etilishi lozim.

3. Maqolaning umumiy hajmi (rasm, jadval va diagrammalar bilan birgalikda) 8 sahifadan kam bo‘lmasligi (annotasiyalar, kalit so‘zlar va adabiyotlar ro‘yxati bu hisobga kirmaydi) talab qilinadi. Jurnal uchun eng maqbul hajm 8-10 sahifa oralig‘ida.

4. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular oq-qora ranglarda chizilgan bo‘lishi, aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Maqolada matnida rang vositasida ma‘no farqlashga xizmat qiladigan rasm, chizma va diagrammalarning bo‘lishi mumkin emas.

Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yhati lotin alifbosiga transliteratsiya qilinadi.

Maqolaga mualliflar haqida ma‘lumot ilova qilinadi.

Muallif(lar) haqidagi ma‘lumot quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasining ismi (to‘liq)
- ilmiy darajasi (agar bo‘lsa)
- ish joyi, bo‘lim, vazifasi (qisqartirmagan holda).

Muallif haqida ingliz tilidagi ma‘lumotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasi ismining ingliz tilidagi varianti, maqola nomi va muallif ish joyining ingliz tiliga tarjimai, masalan: Dilmurod H. Quronov, Andijan State University (Andijan, Uzbekistan). E-mail: kuronov@rambler.ru

COMPOSITION OF LYRICAL WORK

- 2) kalit so‘zlarning ingliz tiliga tarjimai;

Foydalanilgan adabiyotlarning ingliz tilidagi varianti (References) APA-2010 standarti bo‘yicha tayyorlanishi zarur.

1. Kitoblarni berish tartibi:

Esin, A.B. (2000) Printsipy i priyemy analiza literaturnogo proizvedeniya [Principles and techniques of analyzing literary work]. Moscow: Flinta.

Rakhimzhonov, N. (2012) Intellektual she‘riyatning tabiati [Nature of Intellectual Poetry] In: Istiqlol va bugungi adabiyot [Independence and Modern Literature]. Toshkent: Teacher. pp. 145–155.

2. Maqolalarni berish tartibi:

Suyarov, M. (2008) Peyzash she‘riyatida kompozitsiya [Composition in landscape poetry]. O‘zbek tili va adabiyoti [Uzbek language and literature]. 1. pp. 72–75 (In Uzb.).

3. Internet manbalarini berish tartibi:

Belova, E. A., Kilkeeva, Yu. A., & Trenogina, A. A. (2014). *Tendencies of the world market of transportation and logistics services development*. Retrieved from http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2014/TGU_5_336.pdf (in Russ.)

Muassislar:
“Economic science” mas'uliyati cheklangan jamiyati
Buxoro davlat universiteti

**"IQTISODIYOT VA
TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion
jurnali**

2021-yil 2-son (2)

**2021-yildan
chiqa boshlagan.**

OBUNA INDEKSI: 200117

**Manzil: Buxoro shahri,
M.Iqbol ko'chasi, 11-uy, 2-bino,
403-xona.**

ilmiy va innovatsion nashri

Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor-
o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy
xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik
litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab
o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga
mo'ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli
maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar,
turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas'ul:
Gavhar XIDIROVA
Muharrir:
Halim HAMROYEV**

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi. Chop etish sifati uchun
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 01.03.2022
Bosmaxonaga topshirish vaqti
07.03.2022

Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 330.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriiddin Salim Buxoriy” MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri
M.Iqbol ko'chasi 11-uy.